

**QORAMOLCHILIKNING AHAMIYATI, QORAMOL ZOTLARI VA
QORAMOLLARNI GO‘SHT UCHUN PARVARISHLASH YULLARI**

Z.S.Tleubayeva

SamDVMCHBU Nukus filiali

Rezyume. Chorvachilik xususan, qoramolchilikni rivojlantirishga respublikada alohida e’tibor berib kelinmoqda. Mustaqillik yillarida sohani rivojlantirish tendensiyasi yanada ko‘tarilib bormoqda. Ushbu ijobiy natijalarga erishishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 yanvardagi PQ-4576-sonli qarorlarda hamda 2019 yil 28 martdagi «Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5696-son Farmoni asos bo‘ladi. Mamlakatimizda chorvachilik sohasini rivojlantirishga eksportga mo‘ljallangan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish va turlarini kengaytirish, shuningdek, aholini mahalliy ishlab chiqarilgan sifatli va arzon chorvachilik mahsulotlari bilan ta’minalash bo‘yicha izchil choratadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu maqolamizda qoramollarni ahamiyati va go‘sht uchun parvarishlash yullari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: qoramol, qoramolchilik, chorvachilik, go‘sht, sut, bo‘rdoqilash, xo‘jalik.

**QORAMOLCHILIKNING AHAMIYATI, QORAMOL ZOTLARI VA
QORAMOLLARNI GO‘SHT UCHUN PARVARISHLASH YULLARI**

Z.S.Tleubayeva

SamDVMCHBU Nukus filiali

Rezyume. Chorvachilik xususan, qoramolchilikni rivojlantirishga respublikada alohida e’tibor berib kelinmoqda. Mustaqillik yillarida sohani rivojlantirish tendensiyasi yanada ko‘tarilib bormoqda. Ushbu ijobiy natijalarga erishishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 yanvardagi PQ-4576-sonli qarorlarda hamda 2019 yil 28 martdagi «Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5696-son Farmoni asos bo‘ladi. Mamlakatimizda chorvachilik sohasini rivojlantirishga eksportga mo‘ljallangan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish va turlarini kengaytirish, shuningdek, aholini mahalliy ishlab chiqarilgan sifatli va arzon chorvachilik mahsulotlari bilan ta’minalash bo‘yicha izchil choratadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu maqolamizda qoramollarni ahamiyati va go‘sht uchun parvarishlash yullari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: qoramol, qoramolchilik, chorvachilik, go‘sht, sut, bo‘rdoqilash, xo‘jalik.

**ЗНАЧЕНИЕ СКОТОВОДСТВА, ПОРОД СКОТА И СПОСОБОВ
ВЫРАЩИВАНИЯ СКОТА НА МЯС**

Тлеубаева З.С.

Нукусский филиал СамГУВМЖиБ

Резюме. В республике особое внимание уделяется развитию животноводства, особенно скотоводства. В годы независимости тенденция развития отрасли возрастает. В целях достижения этих положительных результатов основой станет Указ Президента Республики Узбекистан от 29 января 2020 года №. В нашей стране принимаются последовательные меры по увеличению объемов производства готовой продукции, предназначено на экспорт, и расширению ее видов, а также по обеспечению населения качественной и дешевой продукцией животноводства местного производства для развития животноводческий сектор. В этой статье обсуждается важность крупного рогатого скота и способы его выращивания на мясо.

Ключевые слова: крупный рогатый скот, скотоводство, животноводство, мясо, молоко, откорм, хозяйство.

Qoramolchilik chorvachilikning yetakchi tarmoqlaridan biri bo‘lib, aholini sut va go‘sht mahsulotlari hamda yengil sanoatni teri va boshqa xomashyo bilan ta’minlashda ustuvorlikka ega.

Respublikada aholi jon boshiga qoramollar 0,38 boshdan, sut ishlab chiqarish 197 kilogrammdan va go‘sht

21 kilogrammdan to‘g‘ri kelmoqda. Meditsina normasiga nisbatan ta’minlash 2,64 va 4,0 baravarga kam. Demak, chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish mustaqilligiga erishishdek ustuvor vazifa o‘z yechimini kutmoqda.

Inson organizimi kuniga 30 gramm go‘sht oqsiliga ehtiyoj sezadi. Bu ehtiyojni asosan go‘sht va go‘sht mahsulotlari orqali qondiradi. Yetishtirilayotgan go‘sht mahsuloti asosan qoramollardan olinadi.

O‘zbekistonda ishlab chiqarilayotgan qoramol go‘shtining 98-99 foizi sut va qo‘shmahsuldor yo‘nalishdagi zotlar va ularning chatishma zotlardan olinmoqda. Faqat 1-2 foizigina go‘shtdor qoramol zotlari va ularning chatishma zotlarga to‘g‘ri keladi.

Parvarishlashga olingan qoramolni boqishda avvalo, bu qoramol zoti qaysi yo‘nalishda boqilayotganligiga e’tibor qaratilishi lozim. Agarda sut yo‘nalishida boqilayotgan bo‘lsa, ratsionida silos, senaj, ko‘k o‘t, pichan, lavlagi, sifatli konsentrat ozuqalar bo‘lishi kerak.

Agar qoramol bo‘rdoqiga boqilayotgan bo‘lsa ratsionida ko‘proq miqdorda konsentrat (yem, kepak, sheluxa, shrot) bo‘lishi shart. Boqilayotgan qoramol kam harakat qiladigan holatda bo‘lishi kerak.

Ba’zi bir qoramol zotlari sut va go‘sht yo‘nalishidagi qaromol zotlar ham mavjud. Bularga qo‘sht mahsuldor zotlar deyiladi.

Qoramol zotini tanlashda birinchi mezon bu – chorvachilik fermasining yo‘nalishidir.

1.Ya’ni, qoramol qaysi ferma uchun va qay maqsadda sotib olinadi?

2.Sut fermasi uchunmi?

3.Sut-go‘sht fermasi uchunmi yoki go‘sht fermasi uchunmi? Shu savolga aniqlik kiritgandan keyin qanday yo‘nalishdagi qoramol zotini sotib olishni hal qilishingiz mumkin. Yirik qoramolning

uchta asosiy yo‘nalishdagi turi mavjud: sut yo‘nalishidagi, sut-go‘sh yo‘nalishidagi va go‘sh yo‘nalishidagi qoramol zotlari. Shu bilan birga, iqlim sharoiti o‘xshashligi va zotning reproduktiv xususiyatlarini ham inobatga olish zarur. Sut va go‘sh yo‘nalishidagi mollar sut va go‘sh unumdoorligi ko‘rsatkichlaridan tashqari o‘zlarining tashqi ko‘rinishi, tana tuzilishi (eksterer) bilan ham ajralib turadi.

Shuning uchun boqiladigan chorva molining zoti muhim ahamiyatga ega. Chorva mollarini tanlashda avval nasldor zotlarini, so‘ngra boshqa zotlarni tanlashimiz kerak. Ushbu turdagি chorva mollarni ko‘pincha topish yoki qimmatligi sababli, yurtimizda qoramollarni parvarishlash mahalliy zotdagi chorva mollar bilan amalga oshirilmoqda. Garchi go‘sh uchun yetishtiriladigan brangus, angus, gerefond, limozin kabi zotlar mavjud bo‘lsada, ular yurtimizda keng tarqalmagan.

Qoramol zotlarini 4 ta asosiy qismiga ajratish mumkin:

- a) sut yo‘nalishidagi zotlar: Golshtin, qora ola, qizil cho‘l, bushuyev zoti.
- b) qo‘sh mahsuldor zotlar: Simental, shvis zotlari
- v)go‘sh yo‘nalishidagi zotlar: Gerefond, qozoqi oq bosh, Aberdin-angus, santa-gertruda, limuzin, zotlari.
- s) mahalliy qaromotlar: Mahalliy (jaydari), Zoti yaxshilangan mahalliy qoramol (qaromotlar o‘zaro yoki nasldor zotlar bilan chatishtirilishidan hosil bo‘lgan tur).

Respublikamizda go‘sh uchun 3 xil usulda qoramollar parvarishlanadi:

- 1.Maxsus ixtisoslashgan go‘shtchilik xo‘jaliklarida.
- 2.Go‘sh yetishtirishga mo‘ljallangan shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo‘jaliklarida.
- 3.Shaxsiy yordamchi va dehqon xo‘jaliklarida (bo‘rdoqilash).

Maxsus ixtisoslashgan go‘shtchilik xo‘jaliklarida

Ushbu texnologiyada go‘sh ishlab chiqarishning to‘liq sikli amalga oshiriladi. Ya’ni erkak buzoqlar 20 kunligidan boshlab sotib olinib, go‘shtga boqish texnologiyasida 14-18 oyligiga 400- 420 kg vazni qadar boqiladi. Sifatli go‘shti yetishtiriladi hamda ozuqlardan samarali foydalanishga erishiladi.

Mavjud texnologiya xo‘jaliklarni ixtisoslashtirish (sut hamda go‘sh yo‘nalishida) asosida joriy etiladi. Go‘sh yo‘nalishiga ixtisoslashgan xo‘jaliklar yoki komplekslar sut yo‘nalishidagi xo‘jaliklardan 20 kunlik sog‘lom erkak buzoqlarni (kelishilgan narxlarda) sotib oladi. Ushbu xo‘jalik yoki komplekslarning bir yo‘la sig‘im hajmi 1000-10000 bosh bo‘lishi samarali hisoblanadi.

Respublikada turli kategoriyadagi xo‘jaliklarning hozirgi tizimida tumanlar miqyosidagi 1000 boshga mo‘ljallangan go‘shtchilik xo‘jaliklarini shakllantirish maqbul.

Go‘sh yetishtirishga mo‘ljallangan shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo‘jaliklarida

Go‘sh yetishtirishga mo‘ljallangan shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo‘jaliklari hamda korxonalar. O‘rtacha me’yorda boqilgan 8-10 oylikdagi 150-180 kilogrammli yosh mollar boshqa xo‘jaliklardan sotib olinadi. Ular, 280-300 kilogramm vaznga qadar boqiladi va so‘ngra 90-100 kun mobaynida bo‘rdoqilanib, 380-400 kilogramm vaznga va yuqori semizlik darajasiga yetkazilib go‘shtga topshiriladi. Go‘sh yetishtirishga ixtisoslashgan xo‘jaliklarning ikkinchi tipidagilari shaxsiy

yordamchi, dehqon va fermer xo‘jaliklari hamda qishloq xo‘jalik korxonalari.

Ularda 4-6 oylik sutdan chiqarilgan erkak buzoqlar sotib olinib o‘sirishga va bo‘rdoqilashga qo‘yiladi. 420-450 kilogramm

vaznga yetgunga qadar bo‘rdoqilanadi.

Har bir tumanda qoramollarni bo‘rdoqilashni ixtisoslashtirish va konsentratsiyalash go‘shtchilik fermer xo‘jaliklari yoki korxonalarini tashkil qilish asosida amalga oshiriladi. 1000 bosh yosh mollarni parvarish qiluvchi xo‘jaliklarning yillik go‘sht ishlab chiqarish hajmi 340-350 tonnani va mollarni go‘shtga topshirish vazni 480-500 kilogrammni tashkil etadi.

Shaxsiy yordamchi va dehqon xo‘jaliklarida (bo‘rdoqilash)

So‘yish konditsiyasiga (tirik vazni va semizligi bo‘yicha) yetmagan yosh va yetuk yoshdagি mollar paxta shroti, sheluxasi, kepak, omixta yem, makkajo‘xori yormasi, pichan, somon va xo‘jalik chiqindilari bilan jadal bo‘rdoqilanadi. Yaylov

sharoitida semirtirish texnologiyasi ham qo‘llaniladi.

Qoramol go‘shti ishlab chiqarishning ulkan zahirasi shaxsiy yordamchi va dehqon xo‘jaliklarida mollarni bo‘rdoqilash texnologiyasini joriy etish asosida ishga solinadi.

Mollarni bo‘rdoqilash yengil tipdagi binolar va ayvon- bostirmalarda, oziqlantirish xo‘jalikda jamg‘arilgan pichan, somon, paxta sheluxasi, shrot, kepak, oziq-ovqat, bog‘, poliz va sabzavot chiqindilarida o‘tkaziladi.

Go‘shtga boqishda 150-180 kilogrammlı yosh mollar tanlab olinadi. Parvarishlash va bo‘rdoqilash muddati mollarning zoti, semizlik darajasi va yoshiga bog‘liq bo‘ladi. Parvarishlash muddati 7-8 oy va bo‘rdoqilash 4-5 oy davom etishi mumkin. Mollarni yoz oylarida yaylovlarda boqish imkoniyatiga ega bo‘lgan xo‘jaliklar ularni yaylovda semirtirib, so‘ngra sentyabr-oktyabr oylarida 300-350 kilogrammga yetganlarini bo‘rdoqiga boylashlari lozim. Bo‘rdoqilash davrida ularning vazni 400-450 kilogrammga yetadi. Yosh mollarni go‘shtga parvarishlashda ratsionning 75-80 foizini dag‘al va shirali ozuqalar, 20-25 foizini turli konsentrat ozuqalar tashkil qiladi. Bo‘rdoqilash davrida konsentrat ozuqalar salmog‘i 45-50 foizgacha oshiriladi.

Ta’kidlash joizki, yosh mollarni go‘shtga parvarishlash texnologiyasi maxsus ixtisoslashgan go‘shtchilik xo‘jaliklarida eng maqbul hisoblanadi. Mollarning go‘sht mahsulorlik genetik potensialidan samarali foydalaniлади.

Foydalaniлgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. 2019 yil 28 martdagи «Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5696-son Farmoni
2. Mirziyoyev Sh. 2019 yil 18 martdagи. "Chorvachilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-4243-son qarori
3. Turkiya Respublikasi “Oziq-ovqat qishloq xo‘jaligi vazirligi” hamda “Denizbank” hamkorligida tayyorlangan “100 ta kitob”dan iborat to‘plami.
4. Nosirov U.N. Qoramolchilik. – Toshkent, 2001.
5. Hamidov X.A., Kats M. Dehqon xo‘jaliklarida qoramollarni parvarishlash va mahsulot yetishtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar. – Toshkent, 2011.